

“TOG‘AY MURODNING “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ASARIDA SIFAT SO‘ZLARINING DIALEKTOLOGIK TAHLILI”

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15830977>

Turdiyeva Aziza Sobir qizi

GulDPI IFF 2-bosqich talabasi

azizaturdiyeva070@gmail.com

+998770096605

Annotatsiya

Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarida ishlatilgan sifat so‘zlari dialektologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Asardagi shevaga xos sifatlarning leksik xususiyatlari, ma‘nosi hamda hududiy o‘ziga xosliklari yoritiladi. Maqolada sifat so‘zlarining asardagi roli va sheva elementlari sifatidagi o‘rni batafsil tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar

Tog‘ay Murod, Otamdan qolgan dalalar, dialektologiya, sifat so‘zlari, leksik tahlil, hududiy leksika.

Abstract

This article analyzes the adjectives used in Tog‘ay Murod’s work Otamdan qolgan dalalar from a dialectological perspective. It highlights the lexical features, meanings, and regional peculiarities of the dialect-specific adjectives found in the work. The article provides a detailed analysis of the role of adjectives in the text and their function as dialectal elements.

Keywords

Tog‘ay Murod, Otamdan qolgan dalalar, dialectology, adjectives, lexical analysis, regional lexicon.

O‘zbek tilining shevalari milliy tilimizning boyligi va rang-barangligini namoyon etuvchi muhim qismidir. Har bir mintaqaning o‘ziga xos leksik xususiyatlari so‘zlarning ma‘nosi va qo‘llanilishida o‘z ifodasini topadi. Bu farqlar badiiy adabiyotda ham yaqqol ko‘rinib, asarlarga yanada tabiiylik va mintaqaviy rang bag‘ishlaydi. Bizga yaxshi ma‘lumki, sifat so‘zlar shaxs va narsalarning umumiy belgisini ifodalovchi so‘z turkumidir. Adabiy asar tilining obrazlilik darajasi, uslubiy boyligi ko‘p jihatdan unda ishlatilgan leksik birliklar, ayniqsa sifatlilar bilan belgilanadi. Sifatlilar badiiy tasvirda shakl, rang, holat, xarakter, ruhiy kechinma va ijtimoiy munosabatni berishda muhim stilistik yuk ko‘taradi. Ular

nafaqat predmet va hodisalarning belgisini bildiradi, balki muallifning bahosini, dunyoqarashini, muayyan obrazga munosabatini ham ochib beradi.

O'zbek badiiy adabiyotida sifatlarning ishlatilishi har doim muhim o'rinda bo'lib kelgan. Ayniqsa, xalqona, shevaga xos sifatlarning qo'llanishi asar tiliga milliy ruh, hayotiylik, jonlilik olib kiradi. Ular orqali obraz yanada tiriklashadi, voqealar esa real muhitda kechayotgandek tuyuladi. Tog'ay Murod ijodida bu hodisa ayniqsa e'tiborlidir. Uning "Otamdan qolgan dalalar" asarida muallif shevaga xos sifatlarni tabiiy va jonli tarzda ishlatgan. Bu sifatlarga faqatgina grammatik birlik sifatida emas, balki badiiy-estetik vosita, xalq ruhiyatining ko'zgusi sifatida qarash mumkin. Ushbu asarda shevaga xos leksik va uslubiy xususiyatlar chuqur ifoda etilgan bo'lib, u o'quvchida milliy ruh va mintaqaviy o'zlikni anglashga yordam beradi. Quyida mazkur asardagi sifat so'zlarining shevaga xosligi va ularning leksik xususiyatlari haqida batafsil fikr yuritiladi.

Bo'rsildoq. *"-Ana tuproq, mana tuproq! - deydi. - Bo'rsildoq tuproq"*. Mazkur jumladagi "Bo'rsildoq" so'zi dialekt sifatida qimmatli leksema sanalib, bo'rsib, ko'pchib, bilqillab turgan yer ma'nolarida qo'llanilib, predmetga ishora qilgan. Shevalardagi og'zaki nutqda mazkur so'zning lo'ppi, semiz ma'nolari ham bor. Bu ma'nolar shaxsga nisbatan ishlatilishini eslatib o'tish ham maqsadga muvofiqdir.

Mag'izdor. *"Mag'izdor tuproq! hosildor tuproq! tuproqmisan-tuproq!"* "Mag'izdor" so'zi sifat turkumiga kiradi va tuproqning hosildor, unumdor ekanligini bildiradi. Bu so'z "mag'iz" (yerni, tuproqning hosil beruvchi qismi) so'zidan hosil bo'lgan. "Mag'izdor" tuproq haqida gapirganda, uning unumdorligi, dehqonchilik uchun qulayligi ta'kidlanadi. Shuningdek, ushbu so'z mintaqaviy lug'atga xos, chunki adabiy tilda "hosildor" so'zi ko'proq ishlatiladi. "Mag'izdor" esa tabiiy, dialektik ifoda sifatida asarga o'ziga xos rang beradi va o'quvchida mintaqaning til jihatdan boyligi haqida tasavvur uyg'otadi.

Yuvuqsiz. *"Yuvuqsizlar hukumati desang-da bo'ladi, sho'rolar hukumati desang-da bo'ladi!"* Aqrab obrazi tilidan ayoliga aytilgan "Yuvuqsizlar" so'zi sheva leksikasiga mansub so'z bo'lib, gapda kimlar? so'rog'iga javob bo'lib, otlashib kelgan. "Yuvuqsiz" asli sifat so'z bo'lib "yuvinishga odatlanmagan", ya'ni "iflos", "nopok" ma'nolarini bildiradi. Ushbu gapda bu so'z ko'proq kinoya, tanqid ma'nosida ishlatilgan va ijtimoiy yoki siyosiy munosabatlarda salbiy baho berish uchun qo'llanilgan.

G'ojir. *"Qizillar o'ligini g'ojirlarga yem qilaman"* Jumladagi "g'ojirlarga" so'zi otlashgan sifat bo'lib, mintaqaviy yoki shevaviy leksik birlik sifatida ishlatiladi. Mazkur so'z "g'ajir" ma'nosida "o'limtiklar bilan ovqatlanadigan, burgut kabi katta yirtqich qush" [Izoh. uz] ni anglatadi, ammo "g'ojir" ma'nosida ayrim shevalarda bo'ri ma'nosini (ot so'z turkumi), Qashqadaryo hududlarida vahshiy,

yovvoyi ma'nolarini (sifat so'z turkumi) anglatadi. Bu jarayonda "g'ojir" so'zining kontekstda ham vahshiy qush ma'nosida kelgan va og'zaki nutqda fonetik o'zgarishga uchragan, ya'ni "a" tovushi "o" tovushiga almashgan degan mulohazalar bo'lishi mumkin. Ammo bu jihat noto'g'ri ekanligiga doir fikrimizning bir qancha isbotlari bor. Masalan, Qashqadaryo viloyatining ayrim hududlaridagi qipchoq lahjalarida bu so'z itlarga nisbatan "vahshiy", yoki odamlarga nisbatan "qattiqqo'l" ma'nolarida qo'llaniladi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining hududiy joylashuvi, so'zlashuv uslublari bir-biriga yaqin ekanligini hisobga olsak, fikrimiz haqiqatga yaqinroq bo'ladi. Jumlada esa bu leksema otlashgan sifat bo'lib kelgan. Demak, bir so'z turli hudud shevalarida turli so'z turkumlarini ifodalashi ham mumkin ekan. "G'ojir" so'zi esa mazkur fikrimizning dalilidir.

Poshikasta. *"-Chanishev! - deydi otamiz. -Manavi cho'chqalaringga ayt, poshikasta-zaifalarni undaychikin so'kmaydilar".* Poshikasta — bu so'z asarda "zaif", "kuchsiz" ma'nosida keladi va mahalliy nutqqa xos. Jumlada "poshikasta-zaifalarni undaychikin so'kmaydilar" deb, ayollarning zaifa, ojiza ekanligiga ishora qilinmoqda. Surxondaryo viloyati Afg'oniston bilan chegara hududida joylashganligi sababli, mintaqa shevasiga fors tili ta'siri aniq seziladi. Jumladan, "poshikasta" so'zidagi "kasta" qo'shimchasi fors tilidan kirib kelgan, Bu esa shevaning leksik tarkibi va uning tarixiy-madaniy aloqalari haqida ma'lumot beradi hamda mintaqaning til o'ziga xosligini namoyon etadi.

Po'rim. *"-O'zi bir churka tuzemets bo'lsa, Turkiston, turkiylar degan po'rim-po'rim gaplarni qayerdan biladi, Kolesov?".* Jumladagi "po'rim" so'zi "olifta", "zamonaviy" ma'nolarini bildiradi. "Po'rim-po'rim gaplar" birikmasi takroriyliigi va mazmunan yuzakiligi bilan birga, sodda odamlarga nisbatan kinoyali munosabatni ifodalaydi. Bu so'z orqali rus tuzemining turkiylarning tarixiy, madaniy merosi va xalqiga nisbatan yuzaki, soddalashtirilgan qarashi tanqid qilinadi. Jumlaning rus kishisi Poltoratskiyning tilidan aytilganligiga e'tibor qaratsak, mazkur so'zning kelib chiqishi rus tilidan ekanligi ehtimol, ammo bu so'z qishloq shevalarining og'zaki nutqda bugungi kunda ham uchraydi. Demak, ruslar ta'siri ostida kirib kelgan va xalq ongida muqim o'rnatilib bugungi kunga qadar yetib kelgan.

Qalang'i-qasang'i. *"-Qalang'i-qasang'ilari hamon daydib yuribdi".* Qalang'i qasang'i so'zi shevaviy sifat birikmasi bo'lib, adabiy tilda betayin, bema'ni, tartibsiz va maqsadsiz ma'nolarini anglatadi. Bu birikma so'zlarning ma'nosi bilan birga ularning ovoz jihatdan takrorlanishi orqali ifoda kuchi oshirilgan. Qashqadaryo shevasida bu so'z yolg'on gapiradigan, o'g'ri odamlarga nisbatan ham ishlatiladi va salbiy bo'yodkorlikni aks ettiradi.

Sulloh. *“Aynan sen sullohn keladi deb o‘ylab edim”.* “Sulloh” so‘zi o‘zbek tilining noformal yoki dialektik qatlamiga mansub bo‘lib, shilqim, bezbet, o‘ta ketgan surbet sifatida salbiy ma’noda ishlatiladi. [Madvaliyev. 2022]. Gapda esa kimni? so‘rog‘iga javob bo‘lib otlashgan sifat tarzida kelyapti. Shevada bu so‘zning ishlatilishi tanqidiy va bo‘yoqli bo‘lib, shaxsning ijtimoiy va axloqiy salbiy xususiyatlarini ifodalaydi.

Shaloq. *“Elga ermak, xalqqa shaloq bo‘lib o‘l, Ollohu Akbar!”.* Shaloq so‘zi aslida shevada axloqi buzuvchi, bezori ma’nolarini anglatib sifat so‘z turkumiga doir so‘z sanaladi, ammo konteks ma’nosidan qaraydigan bo‘lsak bu so‘z sifatga yaqinlik ma’nosidan uzoqlashib, sharmanda tarzda vafot etishi, elning oldida izza bo‘lish ma’nolarida ot so‘z turkumiga o‘tib ketadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Valdirvasar. *“-Manavi valdirvasar bo‘lib ketib borayapti.”* Bu yerda “valdirvasar” so‘zi dialektal sifat bo‘lib, keraksiz gaplarni gapiruvchi, valdirayveradigan odamni nazarda tutadi. Adabiy tilga yaqin ma’nodosh shakli “ezma”, ba‘zan “sergap” kabi so‘zlardir. Ushbu sifat orqali muallif personajning xarakteri, xatti-harakati va unga bo‘lgan munosabatni xalqona, biroz kinoyali ohangda tasvirlaydi. Bu kabi dialektal so‘zlar Tog‘ay Murod asarlariga milliylik, qishloq hayotiga xos tabiiy ruh, obrazning jonli chiqishi kabi estetik jihatlarni olib kiradi.

Aji-buji. *“Bayroqchi aji-buji dorilar bilan bulg‘anmish janda chopon beradi”.* Aji-buji so‘zi egri-bugri, qing‘ir-qiyshiq ma’nolarini anglatadi. Adabiy tildagi shakli ham mazkur so‘zlarga to‘g‘ri keladi. [Izoh.uz]. Vaholanki, kontekstdan kelib chiqib tahlil qilsak, bu sifat egri-bugri yoki notekis ma’nosida emas, balki xilma-xil, tartibsiz aralash, noaniq dorilarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu yerda “aji-buji” so‘zi adabiy tildagi “har xil”, “turli-tuman”, “aralash-quralash” kabi so‘zlarga ma’nodosh bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu sifatning bunday kontekstdagi qo‘llanilishi shevaga oid so‘zlarning ma’no ko‘lamining kengligini va muayyan obrazlar yaratishdagi ta’sirchanligini ko‘rsatadi. Yana shuni alohida ta’kidlash lozimki, gapda qo‘llanilgan “janda” so‘zi lug‘aviy jihatdan ot turkumiga kiradi, chunki u mustaqil ma’noga ega bo‘lgan narsa nomini bildiradi. Usti kiyim, mato bo‘laklaridan (quroq usulida) uzun va keng qilib tikilgan. Asosan qalandar va shayxlar kiygan (xirqa). Hozirgi ma’noda — juldur chopon, yaktak; qo‘lda to‘qilgan ip mato turi. [O‘zME. Birinchi jild. 2000-yil]. Mazkur so‘z forsiy tildan kirib kelgan tarixiy so‘zdir. U adabiy tilda kamdan kam, asosan qishloq shevalarida ma’nosi o‘zgargan holda ya’ni qalandarlar kiyadigan xirqa emas, balki eski kiyim, juldur matolarga nisbatan ishlatiladi. Masalan, Qashqadaryoning janubiy hududlarida tandirga non yopish uchun kiyiladigan eski kiyim aynan manashu janda so‘zi bilan ataladi. Biroq, kontekstdagi qo‘llanishiga e’tibor qaratilsa, bu so‘z aniqlovchi vazifasida kelib, sifat tusini olgan. Masalan, “janda chopon” iborasida

“chopon” ot bo‘lib, “janda” unga nisbatan “qanday chopon?” degan savolga javob beradi. Bu esa sintaktik jihatdan sifat vazifasida kelgan otning misolidir.

Xuddi shu kabi, “*jiva qoshig‘imni yo‘qotib qo‘yaman*”. Asarda uchraydigan “jiva qoshiq” birikmasida ham “jiva” so‘zi shevaga oid ot bo‘lib, “yog‘och” ma‘nosini bildiradi. Garchi lug‘aviy jihatdan ot bo‘lsa-da, bu birikmada u aniqlovchi vazifasida kelib, sifat tusini olgan. Shuning uchun, bu kabi birliklar shevaga oid sifatning shakllanishida ishtirok etuvchi leksik vosita sifatida e‘tiborga loyiqdir.

Yerrang. “*Uzun qish qorayib-qorayib yotmish dalalarim yerrang-yerrang bo‘ldi*”. Jumlada keltirilgan “yerrang” so‘zi shevaga oid, deyarli adabiy tilga kirmagan sifattir. Bu so‘z “yer rangi” iborasiga yaqin bo‘lib, xira-jigarrang, yer tusidagi rangni ifodalaydi. U ko‘proq tabiat manzarasini, ayniqsa qishda, qor erib, yer yuzasi ochila boshlagan paytdagi holatni tasvirlashda qo‘llaniladi. Mazkur so‘z o‘zbek tilida juda kam uchraydigan leksema bo‘lib, muallifning tabiat holatini xalqona ko‘z bilan kuzatishini, tasvirning esa ona zamin bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu kabi shevaga oid sifatlar asar tilini milliy ruh bilan boyitadi, ifoda rang-barangligini oshiradi hamda matnni hayotiy qiladi

Labbaygo‘y. “*Raisimiz labbaygo‘y bo‘lib-labbaygo‘y bo‘lib bordi*”. Gapdagi labbaygo‘y sifati birovning gapini, topshirig‘ini doim “labbay!” deb bajaruvchi; itoatkor; laganbardor [Vikilug‘at] kabi ma‘nolarni anglatadi. Adabiy tildagi shakli ham mazkur so‘zlarga muvofiq keladi. Asarda uchragan “labbayg‘oy” so‘zi kontekstdan kelib chiqib, salbiy-emotsional, kinoyaviy ma‘no kasb etgan. Bu so‘z mustaqil fikri yo‘q, faqat yuqori martabali shaxslarga maqtovlar yog‘dirib, ularning oldida “labbay” deyishga doimo tayyor turgan, laganbardor kimsani tasvirlashda ishlatilgan. “Labbayg‘oy” orqali muallif bunday obraz egasining ijtimoiy zaifligi, ruhiy bo‘ysunuvchanligi va shaxsiy pozitsiyaga ega emasligini tanqid ostiga oladi. Bu so‘z oddiy itoatkorlikni emas, balki laganbardorlikni, qo‘rqoq ixlosmandlikni ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, sifatlar badiiy matnning ruhini belgilovchi asosiy ifoda vositalaridan biridir. Ayniqsa, shevaga xos sifatlar muallifning milliylikni, muhitni, hayot tarzini real ko‘rsatishdagi yondashuvini yaqqol ifodalaydi. Tog‘ay Murod ijodidagi sifatlar nafaqat belgi bildiruvchi birliklar, balki tasvir kuchini oshiruvchi, tilga obrazlilik baxsh etuvchi, xalq ruhi va ifoda uslubining ajralmas bo‘lagidir. “Otamdan qolgan dalalar” asarida uchraydigan shevaga oid sifatlar tilning badiiy imkoniyatlarini boyitadi, obrazlar ichki dunyosini yanada chuqur ifodalaydi. Ularning zamirida oddiy belgilab qo‘yish emas, balki muallifning pozitsiyasi, tanqidiy munosabati, xalqning ichki dunyosi, tajribasi va mentaliteti mujassam. “Otamdan qolgan dalalar” asaridagi mintaqaviy leksikaga mansub bo‘lgan sifat so‘zlar asar tilining rang-barangligini va mintaqaviy o‘ziga xosligini oshiradi.

Shuningdek, sifat soʻzlarining kinoyali va salbiy maʼnolari obrazlarning ichki dunyosini yanada ochib beradi, asarga chuqurlik hamda realizm olib kiradi. Ushbu shevalik unsurlar oʻquvchiga mintaqaning til madaniyati, uning xalq ogʻzaki nutqidagi xususiyatlari haqida kengroq tasavvur beradi. Natijada, asardagi sifat soʻzlari mintaqaviy tilshunoslik va adabiy tahlil uchun muhim manba hisoblanadi va oʻziga xos shevalik tafakkur hamda lingvistik boylikni aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduvahob Madaliyev "Oʻzbek tilining izohli lugʻati" 2022.
2. Izoh.uz. <https://izoh.uz>
3. Vikilugʻat <https://uz.wiktionary.org>
4. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti 2000-2005.
5. Togʻay Murod "Otamdan qolgan dalalar" Toshkent, 2022.